

## NOTIPAVIY QOMATLARGA MOS KIIYIMLARNING SIFATINI OSHIRISHGA QARATILGAN MAVJUD ILMIY VA AMALIY ADABIYOTLARLAR TAHLILI

**G‘afurov Jaxongir Kabulovich**

t.f.d., prof., “To‘qimachilik sanoati” kafedrası, Jizzax politexnika instituti, Jizzax,  
O‘zbekiston

E-mail: [jgafurov@mail.ru](mailto:jgafurov@mail.ru)

**Abduraximova Manzura Sodiqovna**

“Yengil sanoat buyumlari texnologiyasi” kafedrası tayanch doktoranti, Farg‘ona  
politexnika instituti, Farg‘ona, O‘zbekiston

E-mail: [manzuraabduraximova5@gmail.com](mailto:manzuraabduraximova5@gmail.com)

### **Annotasiya**

Ushbu maqolada tipaviy va notipaviy qomatlarining farqlanishi, notipaviy qomatlarga kiyim konstruksiyalashning dastlabki ma’lumotlari, chet el olimlarining kiyimlarni loyihalash jarayonini avtomatlashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari, to‘la qomatli ayollarning mavjud qomat tipologiyalarini qiyosiy tahlillari asnosida notipaviy qomatlarga mos kiyimlarning sifatini oshirishga qaratilgan mavjud ilmiy va amaliy adabiyotlar tahlil natijalari o‘rganilgan.

**Tayanch so‘zlar:** tipaviy, notipaviy, qomat turlari, ishlab chiqarish, ommaviy, yetarlicha, lardozi, kifoz, bukchaygan, kekaygan, past yelkali, baland yelkali, to‘la qomatli, kiyim-kechak, konstruksiya, o‘zgarishlar, takomillashtirish, tahlil, o‘lcham va h. k.

### **Kirish**

Jahon mamlakatlari o‘rtasida tikuvchilik buyumlarini ishlab chiqarishda avtomatlashtirilgan yangi texnologiyalarni qo‘llash orqali sifatini oshirishga katta e’tibor berilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda, jumladan Xitoy, AQSH, Yaponiya, Germaniya, Italiya kabi bir qator mamlakatlarda tikuvchilik mahsulotlarini loyihalash va ishlab chiqarishni rivojlantirish, texnologik jarayonlarni boshqarish uslublarini takomillashtirish bo‘yicha yetarlicha muvaffaqiyatlarga erishilgan. Shu jihati bilan ular tikuv buyumlari raqobatbardoshligini ta’minlovchi muhim



omillaridan biri bo‘lib hisoblangan yuqori samarali texnologiyalar bozorida liderlik pozitsiyasini ushlab turadi.

Prezidentimizning 2022 yil 21-yanvardagi PF-53-son «To‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan ishlar jadal suratlarda o‘sib bormoqda [1,15].

### Asosiy qism

Hozirgi kunda yengil sanoat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan kiyimlar faqat tipaviy qomatlargagina ishlab chiqiladi, biroq ayollar va erkaklar o‘rtasida tipaviydan og‘ishgan notipaviy qomat turlari ya‘ni (bukchaygan, kekkaygan, past yelkali va baland yelkali) insonlar ko‘payib bormoqda. Bunday qomatlarni ko‘payishining asosiy sabablari yoshlikdan noto‘g‘ri o‘tirish, kasbiy faoliyat va noto‘g‘ri ovqatlanish oqibatida yuzaga kelmoqda. Tipaviy qomatlar uchun ishlab chiqarilayotgan kiyimlarning hammasi ham notipaviy qomat turlariga mos kelmasligi mumkin.

Masalan, kiyimning orqa bo‘lagining o‘rta, yon qismlarida solqilarning hosil bo‘lishi, orqa bo‘lakning old bo‘lakka nisbatan kaltaroq turishi yoki old bo‘lakning orqa bo‘lakka nisbatan ko‘tarilishi asosiy dolzarb muammoni yuzaga kelishini bildiradi [2,14].

Bu dolzarb muammoni chet el va yurtimiz olimlari tomonidan o‘rganilganlik darajalari bo‘yicha bir qancha tahlillar o‘rganildi. Quyida ular haqida ma‘lumot keltirildi.

Odam qomati (andom) tushunchasi. Qomat, boshqa morfologik belgilar kabi ma‘lum darajada odam gavdasi tashqi shakllarining xususiyatlarini belgilaydi. Shuning uchun qomatni o‘rganish antropologlar va shifokorlar, shuningdek, tikuvchilik ishlab chiqarish mutaxassislari uchun muhim ahamiyatga ega [3].

Har bir qomat umurtqa va tananing ma‘lum bir shakli, bosh va qo‘l-oyoqning holati bilan xarakterlanadi. Qomatni xarakterlovchi asosiy belgilar umurtqa va tana shakli hisoblanadi. Tipaviy va notipaviy qomat turlarining farqlanishi bo‘yicha aniqlangan ma‘lumotlar:



1) L. P. Nikolayevning qomatni tasniflab bergan taklifi tikuvchilik sanoatida ko‘proq qiziqish uyg‘otdi. Bunga ko‘ra, u qomatni beshta turga bo‘ladi: normal, to‘g‘ri, bukchaygan, lordoz va kifoz [4,16].

2) A. P. Nikolayevning ma‘lumotlariga ko‘ra, bunday qomatlar ko‘proq qariyalarda uchraydi. Bukchaygan qomat bo‘yin lordozining oldinga ko‘proq egilganligi va bel lordozining kamayganligi (orqa dumaloq shaklda bo‘ladi) bilan ajralib turadi.

- Lordotik qomat bel lordozining kuchli va bo‘yin lordozining kuchsiz rivojlanganligi bilan xarakterlanadi.

- Kifotik qomat ko‘krak kifozining keskin kuchayib ketishi bilan xarakterlanishini aniqlagan [5].

3) Polshalik tadqiqotchi N. Volyanskiy tasnifiga ko‘ra, qomat uchta guruhga va bu guruhlar o‘z navbatida uchtadan turga bo‘linadi.

Birinchi guruh, kifotik (K), ko‘krak kifozining bel lordoziga nisbatan ko‘p egilganligi bilan xarakterlanadi. Bunda bo‘yin nuqtasidan pastga o‘tkazilgan vertikal chiziq lordotik nuqtaning oldidan o‘tadi. Lordotik nuqta bel lordozining eng ichkari qismida joylashgan bo‘ladi. Ko‘krak kifozining bel lordozidan ustunlik qilishi kichik, o‘rta va katta bo‘lishi natijasida uch xil kifotik qomat turlari ( $K_p$ ,  $K_n$ , va  $K_m$ ) farqlagan [6].

4) B. S. Sokulin notipoviy erkaklar qomatidan yakka tartibda qo‘shimcha o‘lchamlar olish, konstruktiv qo‘shimchalar kiritish va ularga kiyim konstruksiya chizmalarini modifikasiyalash ustida tadqiqotlar olib borgan [7,18].

5) P. I. Rogov qomatning tashqi formasini asosiy morfologik ko‘rsatkichlari, qomatning risoligi va klassifikatsiyasi, ayollar qomati tipining SOTShL antropomorfologik klassifikatsiyasi, belli buyumlarni loyihalash uchun o‘lchamlar sxemasini tuzish, ayollar qomatini yakka tartibda asosiy o‘zgaruvchanligi ustida tadqiqotlar olib borgan [8,17].

6) Piryazeva Tatyana Vasilievna - “Yelkali kiyimlarni notipaviy qomatlarga loyihalashni avtomatlashtirish” mavzusi bo‘yicha dissertatsiya ishning ilmiy yangiligi elkali kiyimlarni loyihalash va kompyuterlardan foydalangan holda notipaviy qomatlarga kiyimlarni mislsiz loyihalash texnologiyasini ishlab chiqish uchun eng muhim ahamiyatga ega bo‘lgan notipaviy qomatli ayollarning jismoniy xususiyatlarining antropomorfologik xususiyatlarini aniqlash, tasniflash va kodlashdan iborat bo‘lgan [9].

7) Ovsepyan Ganna Samvelovna - “To‘la qomatli ayollar kiyimlari dizaynining xususiyatlarini ishlab chiqish” mavzusi bo‘yicha dissertatsiya ishida-hozirgi vaqtda bozor raqobati sharoitida yengil sanoat mahsulotlarining barqaror sifatini (shu jumladan estetik xususiyatlarini) ta‘minlash masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, odatiy standartdan farq qiladigan nostandart shakllar uchun kiyimlarni loyihalashda, xususan, to‘la qomatda, estetika masalalari eng ustuvor hisoblanadi. Turli xil dizayn texnikalarining ko‘pligi bilan to‘la qomatda moda kiyimlarini yaratish sohasi yetarlicha o‘rganilmagan. Qoida tariqasida, loyihalashtirilgan mahsulotlar funksionalligi bilan ajralib turadi, ammo zamonaviylikning estetik talablariga javob bermaydi va moda tendentsiyalarining tabiatini aks ettirmaydi. Moda olamidagi so‘nggi yangiliklarni va iste'molchilar qomatlarining nostandart xususiyatlarini bir vaqtning o‘zida hisobga olishga imkon beradigan usullar mavjud emas. Ushbu masalalari yetarlicha o‘rganilmaganligini inobatga olib, maqsadga erishish uchun ishda bir-biriga bog‘liq bo‘lgan bir qator vazifalar hal qilinadi, ularning asosiylari: - to‘la qomatli ayol figurasining asosiy turlarini aniqlash uchun mavjud shakl tipologiyalarini qiyosiy tahlil qilingan;

-to‘la qomat uchun moda kostyumining shakllantiruvchi xususiyatlarini o‘rganish metodologiyasini ishlab chiqilgan;

-to‘la qomatlar uchun modani shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini o‘rganish va standart va to‘la qomatlar uchun modani qiyosiy tahlil qilingan;

- kostyumni moda va to‘la qomatni o‘rganish natijalariga ko‘ra kiyimning asosiy xususiyatlari va parametrlarining tarkibiy tasnifini olingan [10].

8) I. A. Redchenko -“Ideal, tipavoy va notipaviy qomat tushunchasi va biosotsial belgilar haqida”gi-maqolasida tana turi va fe'l-atvori, ijtimoiy xulq-atvori o‘rtasida bog‘liqlik . Har bir inson tana turi bilan ajralib turadi, bu bu uning uslubi, rangi va kiyim shaklini belgilaydigan asosiy omillardan biridir. Maqolada quyidagilar aniqlangan ideal, tipaviy va notipaviy qomatlarining asosiy tushunchalari va ularning biosotsial belgilari haqidagi ma‘lumotlar [11].

9) Vinichenko I. B.,Lashina I. B. - “Katta o‘lchamli va to‘la ayollar uchun bashing kiyimlar”-maqolada ilmiy va amaliy ishlarning natijalari muhokama qilinadi to‘la qomatli va noyipaviy qomatli ayollar kiyimlar uchun kiyimlarni modellashtirish jarayonini takomillashtirish, kiyim dizaynini ishlab chiqish bo‘yicha tavsiyalar berilgan [12].



10) Lashina Irina Valentinovna –“Notipaviy qomatli ayollarning ustki kiyimlarini kompyuter yordamida loyihalash uchun dastlabki ma’lumotlarni ishlab chiqish” mavzusi bo’yicha dissertatsiya ishida - tikuvchilik sanoatining texnik va iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo’nalishi ishlab chiqarishni ko’paytirish, assortimentni kengaytirish va iste’mol tovarlari sifatini oshirish zarurati bo’lib, ushbu vazifalarni bajarish tikuvchilik ishlab chiqarishni kompleks avtomatlashtirish, tashkiliy moslashuvchanlikni oshirish va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish asosida takomillashtirish bilan bog’liq. Aholining ehtiyojlarini qondirish jarayoni hozirgi vaqtda uni har xil turdagi korxonalarda ishlab chiqarish orqali amalga oshirilishi, ommaviy ishlab chiqarish, individual buyurtmalar bo’yicha ishlab chiqarish, kichik va qo’shma korxonalarda kiyim-kechak ishlab chiqarish ommaviy tipaviy qomat uchungina emas, balki notipaviy qomatli ayollar uchun ham ishlab chiqarilishi bo’yicha tahlillar olib borgan [13].

11) Shershneva L. P. “Tipaviy va notipaviy qomatlar uchun ayollar kiyimlarini loyihalash” -kitobda aholining yangi o’lchovli tipologiyasi va tana hajmi va shaklining odatdagi qomatlardan mumkin bo’lgan og’ishlari bilan tanishtiradi; kiyim detallari chizmalarini ham tipaviy, ham notipaviy shakllarda chizishning turli usullari va printsiplari bilan tanishtirgan [14].

12) D. O’. Aripdjanova “Turli qomatlarga kiyimlarni konstruksiyalash “-kitobda tipaviydan farq qiluvchi qomatlarga kiyimlarni loyihalash, notipaviy qomatlarga kiyim konstruksiyalashda dastlabki ma’lumotlarni aniqlash, qomatga bog’liq kiyim konstruktiv parametrlarining o’zgarishi, kiyim bazali asosini qomat o’zgarishiga qarab modifikasiyalash haqidagi ma’lumotlar yoritilgan [15].

13) G. K. Volevich “To’la ayollar uchun kiyimlar”-kitobida muallif to’la qomatli ayollar uchun turli modellarning konstruksiyasini qurish bo’yicha ma’lumotlarning hisob formulalari va loyiha chizmalari asosida yoritgan [16].

Ushbu ishlarda turli notipaviy qomatlarning tahlili va ishlab chiqarilayotgan kiyimlarning faqat tipaviy qomat uchun emas balki notipaviy qomat turlari uchun ham ishlab chiqarilishiga tizimli yondoshilganligini kuzatish mumkin.

Shu bilan bir qatorda, notipaviy qomatlar uchun yangi zamonaviy, qulay va qomat kamchiliklarini yashirib turuvchi kiyim turlarini yangi modellarini ishlab chiqarish uchun yangi tadqiqotlar bilan to’ldirish talab qilinadi.

## Xulosa

Yuqorida o‘rganilgan tahlillarga tayangan holda tipaviy va notipaviy qomatlarning farqlanishi, notipaviy qomatlarga kiyim konstruksiyalashning dastlabki ma’lumotlari, chet el institutlarida kiyimlarni loyihalash jarayonini avtomatlashtirish tizimlarining yangi usullari bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilishi, to‘la qomatli ayollarning mavjud qomat tipologiyalarini qiyosiy tahlilari, notipaviy qomatlar uchun dolzarb mavzularni tadqiq qilish orqali ushbu qomat turlariga mos kiyimlarning sifatini oshirishga qaratilgan mavjud ilmiy va amaliy adabiyotlar tahlil natijalari o‘rganilishi nazarda tutilgan.

## Adabiyotlar ro‘yhati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21-yanvardagi PF-53-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. D. U. Aripdjanova Turli qomatlarga kiyimlarni konstruksiyalash. O‘quv qo‘llanma. Namangan-2021 yil. -184 bet.
3. Б. С. Сакулин., Э. К. Амирова., О. В. Сакулина., А. Т. Труханова “Конструирование мужской и женской одежды”. Учебник. Москва-2000. – С. 188.
4. Дунаевская Т. Н., Коблякова Е. Б., Ивлева Г. С. “Размерная типология населения с основами анатомии и морфологии человека”. М., 1980 г.
5. Maxmudjon, T., & Manzura, A. (2022). Use of nonwoven materials in the production of sewing items. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, 1(12), 406-411.
6. Piryazeva Tatyana Vasilievna - “Yelkali kiyimlarni notipaviy qomatlarga loyihalashni avtomatlashtirish” mavzusida dissertatsiya. Moskva 1999 y.
7. Ovsepyan Ganna Samvelovna - “To‘la qomatli ayollar kiyimlari dizaynining xususiyatlarini ishlab chiqish” mavzusi dissertatsiya. Moskva 2011y.
8. I. A. Redchenko -“Ideal, tipavoy va notipaviy qomat tushunchasi va biosotsial belgilar haqida”gi-maqola 2015y.

9. Vinichenko I. B., Lashina I. B. - “Katta o‘lchamli va to‘la ayollar uchun bashing kiyimlar”-maqola.
10. Lashina Irina Valentinovna –“Notipaviy qomatli ayollarning ustki kiyimlarini kompyuter yordamida loyihalash uchun dastlabki ma’lumotlarni ishlab chiqish” mavzusi dissertatsiya. Moskva 1992 y.
11. Shershneva L. P. “Tipaviy va notipaviy qomatlar uchun ayollar kiyimlarini loyihalash” -nashriyot: yengil sanoat : 1980 y.
12. D. O‘. Aripjanova “Turli qomatlarga kiyimlarni konstruksiyalash”-Toshkent 2020y.
13. G. K. Volevich “To‘la ayollar uchun kiyimlar”. Polimya -1995 y.
14. Sodiqovna, A. M., & Abduqodirovna, B. R. N. (2022). Notipaviy qomatli ayollarning o‘lchamlari va tana turlarining farqlanishi. Science and innovation, 1(A3), 284-288.
15. Maxmudjon, T., & Abdurakhimova, M. (2022). The methods of welding details of sewing items from thermoplastic materials. International Journal of Advance Scientific Research, 2(12), 125-132.
16. Sodiqovna, A. M., Abdurashidovna, E. R., & Uktamovna, A. D. Study of female abnormal body types and their analysis. JournalNX, 7(06), 333-335.
17. Sadiqovna, A. M. (2022). Determining the Type of Clothing Suitable for Women With An Non Typical Figure. Texas Journal of Engineering and Technology, 10, 22-26.
18. D. B. Yuldasheva., M. M. Raxmonova., R. Omonullayev., “Notipavoy qo mat uchun konstruksiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari”. Scientific-technical journal (STJ FerPI, ФapIII ИТЖ, ИТЖ ФерПИ, 2022, спец. выпуск №6).

